

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNVERSITETI**

*Qo'lyozma huquqida*

*UDK:371:338:6.01*

**Shaaxmedova Maftuna Saidjamol qizi**

**“INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PROFESSIONAL  
TA'LIM O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI“**

**70112401 – “Professional ta'lim nazariyasi va metodikasi  
(iqtisodiyot)” mutaxassisligi bo'yicha**

**Magistrlik ilmiy darajasini olish uchun yozilgan  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: Mamarajabov Shavkat Ergashevich**  
**pedagogika fanlari nomzodi, dotsent**

**Toshkent – 2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi “Innovatsion ta’lim” kafedrasida dastlabki himoyadan o’tgan. 35 -sonli bayonnoma «28» aprel 2023 yil



IMZONI TASDIQLAYMAN TDIU  
INSON RESURSLARINI BOSHQARISH  
BO'LIMI BOSHIG'I S. XASANOV

Kafedra mudiri:

Xakimova M.F.

[Signature]  
imzo

25.05.2023  
sana

Ilmiy rahbar: Mamarajabov Sh.E.

[Signature]  
imzo

25.05.2023  
sana

Talaba: Shaaxmedova M.S.

[Signature]  
imzo

25.05.2023  
sana

Dissertatsiya “Raqamli iqtisoiyot” fakultetida 2023 yil  
№ 1 raqami bilan ro'yxatga olingan.

«26» may

### ***Annotatsiya***

Mazkur magistrlik dissertatsiyasi bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishni innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirishga bag'ishlangan bo'lib, unda oliy ta'lim muassasalarida innovatsion yondashuv asosida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish holati, mazmun-mohiyatini tahlil qilingan; metodik kompetentlikini rivojlantirishga an'anaviy va innovatsion yondashuvlarni qiyosiy taqqoslash, uni rivojlantirishning pedagogik-psixologik falsafiy imkoniyatlari tahlil qilingan; innovatsion texnologiyalardan foydalanib bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish metodikasi takomillashtirilgan.

### ***Kalit so'zlar***

*Kompetentlik, innovatsion yondashuv, metodik kompetentlik, professional ta'lim, kasbiy kompetensiya, pedagogik texnologiya, kasbiy rivojlanish, baholash*

### *Summary*

This master's thesis is devoted to improving the development of methodological competence of future vocational education teachers based on innovative technologies, which analyzes the state of development of methodological competence of future vocational education teachers based on an innovative approach in higher education institutions; a comparative comparison of traditional and innovative approaches to the development of methodological competence, pedagogical-psychological-philosophical possibilities of its development are analyzed; the methodology for the formation of methodological competence of future teachers of professional education has been improved using innovative technologies.

### *Keywords*

*Competence, innovative approach, methodical competence, professional education, professional competence, pedagogical technology, professional development, assessment*

## MUNDARIJA

Annotatsiya .....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati.....	
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati .....	
Keltirilgan qisqartmalar .....	7
<b>I BOB. KIRISH .....</b>	<b>5</b>
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	8
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
1.4. Tadqiqot ob’ekti va predmeti.....	
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	11
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	12
<b>II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....</b>	<b>14</b>
2.1. Kirish.....	
2.2. Bo`lajak professional ta`limi o`qituvchilarini metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarining ilmiy-nazariy jihatlar.....	14
2.3. Bo`lajak professional ta`lim o`qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishda mahalliy me`yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	22
2.4. Integrativ yondashuv asosida talabalarning metodik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	26
2.5. Ikkinchi bob bo`yicha xulosa .....	35
<b>III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI .....</b>	<b>36</b>
3.1. Tadqiqot dizayni.....	
3.2. Ma`lumotlarni to`plash jarayoni.....	
3.3. Tahlil uchun qo`llaniladigan usullar .....	36
3.4. Tadqiqotni o`tkazish uchun zarur sharoitlar .....	37
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	37
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	41

3.7. Uchinchi bob bo`yicha xulosa .....	52
<b>IV BOB. TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALARI.....</b>	<b>54</b>
4.1. Tadqiqot tajribasini o`tkazish metodikasini ishlab chiqish.....	66
4.2. Tajriba sinov ishlarini o`tkazish va natijalarni tahlil qilish.....	72
4.3. Uchinchi bob bo`yicha xulosa .....	76
<b>V BOB. XULOSA.....</b>	<b>77</b>
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha tavsifi.....	77
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	78
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI .....</b>	<b>79</b>

## I BOB. KIRISH

**1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.** Jahonda kasbiy yetuk, intellektual salohiyatli hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim muammolari masalalari bo'yicha butunjahor Forumida qabul qilingan 2030 yilgacha mo'ljallangan konsepsiyada «...Barcha uchun butun hayoti davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish...» ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib, bu bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish orqali uni amaliyotda qo'llashning yo'naltirilgan integratsion tizimning pedagogik jarayonlarini kengaytirishni taqozo qiladi. Shu tufayli bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishda innovatsiyalar va ta'lim texnologiyalari hamda zamonaviy tashkiliy tuzilmalarning birligi ta'minlanadi.

Jahon ta'lim tizimida professional ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonining asosiy bosqichi sifatida ko'rilayotgan metodik kompetentlikni rivojlantirish asosida bo'lajak mutaxassislarning pedagogik mahoratini oshirish va ularning metodik kompetentligini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishda ta'lim muassasalarida innovatsion yondashuvdan foydalanish, metodik kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik ta'minotini yaratish, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda ish beruvchining talablarini inobatga olgan holda kasbiy va shaxsiy sifatlarni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish masalalari ilmiy yechimi bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Respublikamizda professional ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ayniqsa, pedagoglarning faoliyatining sifatini hamda malakasini uzluksiz oshirish orqali keng islohotlar olib borilishi natijasida professional ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning keng va o'ziga xos tizimi yo'lga qo'yilmoqda.

Xalqaro miqyosda pedagoglarning metodik kompetentligi, xususan, ta'lim jarayonini amalga oshirishning eng maqbul metodlarini, uning samarali modellarini ishlab chiqish, innovatsion ta'lim muhitini tashkil etish va amalga